(5). Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. М., "Академия", 2004, с. 6.

(6). Komilova G. Methods of analysis of values reflected in proverbs (2022). International Journal of Advance Scientific Research, 2(12), p. 34–43. https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05.

(7). Komilova G. O'zbek tilidagi maqollarning aksiolingvistik tahlili. Monografiya, Toshkent, 2022, 108-bet.

(8). Самойлова Г.С. Язык как ценность: научное наследие Н.Д.Русинова и современность. Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, 2013, № 6(2), с. 214–217.

(9). Самойлова Г.С. Языковые ценности как основа формирования человека культуры. Нижегородское образование, 2016, 2, с. 51–58.

Murhanova Nilufar Yigitaliyevna (Andijon davlat Chet tillari instituti "Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi" kafedrasi arab tili o'qituvchisi)

O'ZBEK TILIDA QO'LLANILAYOTGAN ARAB TILIGA OID TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *O'zbek tilidagi diniy va ilmiy asarlarda ko'plab arabcha atamalar, jumladan, kitob, ilm, fikr, zuhd kabi so'zlar uchraydi. Arab tili Sharq falsafasi va islom ilmi orqali madaniyatimizga katta hissa qo'shgan. O'zbek tilidagi arabcha so'zlarning lingvokulturologik jihatlari O'zbekiston tarixi, madaniyati va diniy merosi bilan chambarchas bog'liq.*

Kalit so'zlar: *arab tili, madaniyat, lingvokulturologiya, Sharq falsafasi, terminlar.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АРАБСКИХ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *В религиозных и научных произведениях в узбекском языке встречается множество арабских терминов, в том числе такие слова, как китаб, илм, фикр, зухд. Арабский язык внес большой вклад в нашу культуру посредством восточной философии и исламской науки. Лингвокультурные аспекты арабских слов в узбекском языке тесно связаны с историей, культурой и религиозным наследием Узбекистана.*

Ключевые слова: *арабский язык, культура, лингвокультура, восточная философия, термины.*

LINGUOCULTURAL FEATURES OF ARABIC TERMS USED IN UZBEKISTAN

Annotation. *In religious and scientific works in the Uzbek language, there are many Arabic terms, including words such as kitab, ilm, fikr, zuhd. Arabic language has made a great contribution to our culture through Eastern philosophy and Islamic science. Linguistic-cultural aspects of Arabic words in the Uzbek language are closely related to the history, culture and religious heritage of Uzbekistan.*

Key words: *Arabic language, culture, linguistic culture, Eastern philosophy, terms.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida nutq egasi tinglovchi yoki o'quvchiga o'z fikrini aniq, lo'nda va tushunarli qilib yetkazishi uchun tilning ta'sirchan vositalaridan qay tarzda foydalanishi tobora ko'proq e'tibor jalb qilmoqda. O'zbek tilshunosligida madaniy qadriyatlar va dunyoqarashini aks ettiruvchi milliy konseptosferani antoprotsentrik yo'nalishda o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Tilning turli xalqlar hayotidagi funksionalligi hamda lingvokognitiv, lingvokulturologik mohiyatiga asosiy e'tibor qaratilayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Burchnig turlari va modellarini ochib beradigan hamda odamlarning oilaviy, qarindoshlik, kasbiy, do'stlik, qonuniy, diniy munosabatlaridagi milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon qiluvchi leksik, frazeologik, paremiologik birliklarning turli diskurslarda namoyon bo'luvchi jihatlarini tahlil qilish bugungi kunda o'ta dolzarbdir. So'nggi yillarda insoniyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangiliklar – globallashuv, integratsiya, "davr shiddati va ruhi" – inson omili ekanligi va bu inkor qilib bo'lmas haqiqat ("azaldan to abad") ekanligi ilm-fan (bilim–tafakkur)ning barcha jabhalarida (aniq, tabiiy, ijtimoiy...) o'z aksini topgani hech kimga sir emas. Ilm-fandagi bu hodisa lingvistik tadqiqotlarda "olam va odam konsepti" (lingvokultrologik konsept yoki olamning lisoniy manzarasi – muqoyasa bizniki) tushunchasining mutaxassislar diqqat markaziga aylanganligi va "konsept" tushunchasi yangicha mohiyat-e'tibor kasb etganligi hozirgi zamon tilshunosligi yangi yo'nalish metodlari bilan isbotlanadi. Umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.Fon Gumboldt tilni: 1) mohiyatiga ko'ra ruhiy faoliyat, ruhiy quvvat; 2) tuzilishiga ko'ra butunlik, yaxlitlik(sistema); 3) vazifasiga ko'ra, ijtimoiy hodisa sifatida belgiladi [1] va shu asosida hozirgi zamon tilshunosligi turli ildiz va yo'nalish topdi. Bu ildiz va yo'nalishlar tarixan bir bo'lsa-da, antropotsentrik tilshunoslik mohiyat e'tibori – diqqat markazida inson omili bilan peshqadam tilshunoslikka aylandi va lisoniy faoliyat, lingvistik hodisalarni inson, uning dunyoqarashi va ongi (bilim – tafakkur, ong, aql, zakovat, fahm, farosat tamiz, idrok, fikr, tasavvur, tushuncha, xotira, reja, zehn, fasohat, zakiylik, his-tuyg'u.)ga eng yaqin munosabatda – konseptuallikda ko'rib chiqishni taqazo qiladi. O'zbek tilidagi arabcha

so‘zlarning lingvokulturologik jihatlari O‘zbekiston tarixi, madaniyati va diniy merosi bilan chambarchas bog‘liq. Arab tilidan olingan so‘zlar, ayniqsa, islom dini tarqalishi bilan birga O‘zbekiston madaniyatiga kirib kelgan va shu paytgacha xalq ma’naviyatining bir qismi bo‘lib qolgan. Ushbu so‘zlarning lingvokulturologik jihatlari asosan quyidagi asoslarda tahlil qilinadi:

1. **Diniy-ma’rifiy terminlar.** Ko‘plab arabcha so‘zlar O‘zbekistonga diniy terminologiya orqali kirib kelgan. Masalan, **namoz**, **ro‘za**, **zakat**, **duo**, **taqvo** kabi so‘zlar islom dinining asosiy ibodatlarini ifodalaydi. Bu so‘zlar o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi va diniy hayot bilan bog‘liq turli lingvistik va ma’naviy ma’nolarni o‘zida mujassam qiladi.

2. **Adabiyot va madaniyatdagi o‘rni.** O‘zbek adabiyoti va xalq og‘zaki ijodida arab tilidan olingan so‘zlar keng tarqalgan. Arabcha so‘zlarning ko‘plab madaniy qirralari o‘zbek adabiy merosi orqali yetkazilgan. Masalan, **shoir**, **ruboyat**, **hikmat** kabi arabcha so‘zlar Sharq adabiyoti va falsafasida katta ahamiyat kasb etib, ular orqali xalqona donolik va falsafiy qarashlar yetkazilgan.

3. **Lingvistik xususiyatlari va fonetik o‘zgarishlar.** O‘zbek tiliga kirgan arabcha so‘zlar ko‘pincha fonetik va morfologik jihatdan moslashtirilgan. Masalan, arab tilidagi so‘zlarda uchraydigan ba’zi tovushlar o‘zbek tilida yo‘qligi sababli so‘zlarning talaffuzi va yozilishi o‘zgargan. Shuningdek, grammatik jihatdan ham ba’zi o‘zgartirishlar mavjud, masalan, arab tilidagi ma’lum bir grammatik shakllar o‘zbekcha uslubga moslashtirilgan.

4. **Dunyoqarash va qadriyatlarda o‘z aksini topishi.** Arabcha so‘zlarning ayrimlari orqali o‘zbek madaniyatida e’tiqod, taqvo, va kamtarlik kabi qadriyatlar ifodalanadi. Bu so‘zlar xalq orasida keng tarqalgan va kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan so‘zlarga aylangan. Masalan, **halol**, **harom**, **sabr** kabi so‘zlar o‘zbek xalqining qadriyatlarini ifoda etadi va ijtimoiy hayotda katta o‘rin egallaydi.

5. **Ilm-fan va falsafadagi o‘rni.** Arab tilidan o‘zbek tiliga kirgan ilmiy va falsafiy terminlar, xususan, matematik va astronomiyaga oid terminlar ilm-fan rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, **hisob**, **jabr** (matematika sohasida algebra tushunchasi), **tibbiyot** kabi so‘zlar Sharq ilmiy merosining O‘zbekistonda rivojlanishiga hissa qo‘shgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bunda til egasining fundamental tushunchalari va olamning lisoniy manzarasi prizmasi orqali lingvistik faktlar va hodisalar tahlil qilinadi. Inson dunyoni va o‘zini umuminsoniy va milliy ijtimoiy-tarixiy tajribaga asoslangan til yordamida tushunishga qodirdir. Olamning lisoniy manzarasi insoniyatning ijtimoiy xotirasi va tajribasini o‘zida aks ettiradi. Shu tariqa, inson olamning lisoniy manzarasida markaziy o‘rinni egallaydi [3]. Ijtimoiy xotira va insoniyat tajribasi olamning lisoniy manzarasida aks etishi, unda insonning til vositasida o‘zini individ sifatida modellashtirishi inson ongida o‘zgarish yasashi orqali yuz beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tilshunoslikda antropotsentrizmning ontologik mohiyatini belgilaydi. Ushbu muammo bo‘yicha fikrlarni O‘.Yusupov, D.Ashurova, A.Abduazizov, Sh.Safarov, M.Djusupov, A. Mamatov kabi bir qator o‘zbek olimlarining ishlarida ham kuzatishimiz mumkin [2]. Arabcha so‘zlarning lingvokulturologik tadqiqoti O‘zbekiston madaniy, tarixiy va ma’naviy merosini yanada chuqurroq o‘rganishga va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu tadqiqotlar O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va madaniy merosni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan so‘zlarning lingvokulturologik jihatlarini yana chuqurroq o‘rganish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e'tibor qaratish mumkin. Jamoatchilik qadriyatlari va odob-axloqiy normalar alohida ahamiyat kasb etadi. Arab tilidan kirgan so‘zlar o‘zbek xalqining axloqiy me’yorlari va jamoatchilik qadriyatlarini ifodalaydi. Masalan, **adab**, **odib**, **sabr**, **tahorat** kabi so‘zlar orqali shaxsiy tozalik, odob, xulq-atvor va hurmat kabi tamoyillar ifodalanadi. Bular odatda o‘zbekcha tarbiya va madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, xalq orasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yetkazishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. **Tahlil va natijalar.** Davlat va huquq terminologiyasi jamiyat aloqa aralashuvida muhim o‘rin egallaydi. Arabcha so‘zlarning ayrimlari davlat boshqaruvi va huquq sohasiga kirib kelgan. Masalan, **amir**, **sulton**, **hakam**, **qozi** kabi so‘zlar o‘zbek madaniyatida davlat tuzilmasi va boshqaruv jarayonlariga ta’sir ko‘rsatib kelgan. Bu terminlar tarixan O‘zbekiston hududida o‘z ta’sirini o‘tkazgan davlat tuzilmalari va huquqiy tizimlar orqali yetib kelgan va uzoq yillar davomida ishlatilgan. Arab tilidan kirib kelgan so‘zlar ilmiy va diniy adabiyotlarda keng qo‘llaniladi. O‘zbek tilidagi diniy va ilmiy asarlarda ko‘plab arabcha atamalar, jumladan, **kitob**, **ilm**, **fikr**, **zuhd** kabi so‘zlar uchraydi. Arab tili Sharq falsafasi va islom ilmi orqali madaniyatimizga katta hissa qo‘shgan. O‘zbek adabiyotida, xususan, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband va Abdurauf Fitrat kabi buyuk allomalar asarlarida arab tilining ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Ushbu so‘zlar diniy-tasavvufiy mazmunni yetkazib, xalqni axloqiy va ma’naviy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Ilmiy ishning maqsadi. Tarixiy-madaniy o‘zgarishlarda o‘zbek madaniyati va urf-odatlarini ifodalash va talaffuz qilishda arab tili terminlari keng qo‘llaniladi. Arabcha so‘zlarning ko‘plab talaffuz va mazmun jihatidan o‘zgarishi xalq nutqida va turmush tarzida qo‘llanishiga ta’sir etgan. Misol uchun, “duo” so‘zi arab tilida “so‘rash” yoki “iltijo” ma’nosini bersa, o‘zbek tilida [4] u faqat ibodat mazmunida ishlatiladi. Bu kabi o‘zgarishlar arabcha so‘zlarning mahalliylashib, madaniyat bilan uyg‘unlashganini anglatadi. Atama va tuzilmalar orqali o‘zbek tilidagi yangi so‘zlarning shakllanadi. Arab tilidan olingan so‘zlar o‘zbek tilida yangi ma’nolar hosil qilishda ham ishlatilgan. Masalan, **savob** so‘zi “foyda keltiruvchi amallar” ma’nosini anglatsa, **savob ish** kabi atamalar xalqning ijtimoiy-huquqiy ongini rivojlantirish va mehr-oqibat tamoyillarini ifoda etishda qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek diskursida ishlatilayotgan juda ko‘p so‘zlar arab tilidan o‘z yoki boshqa ma’nolarda ko‘hib o‘tgan. Masalan, o‘z ma’nolarida ishlatiladigan so‘zlar ب عى (bay’) so‘zi ko‘proq bozorlarda qo‘llaniladi. Bu so‘z sotishni boshlash ma’nosini anglatadi. “Ilmiy” so‘zi م لاء so‘zidan olingan bo‘lib, o‘z ma’nosida yangi ilmga oid ma’nosini bildiradi. “Xorijiy” (ج ى جر) so‘zi ham arab tilida tashqi dian ma’noni anglatadi, xuddi shu ma’no o‘zbek tilida ham qo‘llaniladi. *Halol* so‘zi o‘zbek tilida toza, pok ma’nolarini bildirsa, arab tilida o‘zagidan ruxsat etilgan yoki boshqa ma’nolarni anglatishi mumkin. Harom (ح ل ّ) so‘zi o‘zbek tilida nopok ma’nosini, arab tilida esa man etilgan ma’nosini anglatadi. (م ح لا) so‘zi arab tilida go‘sht ma’nosini, o‘zbek tilida esa go‘shtning suyaksiz qismini anglatadi. (نا ولا) so‘zi arab tilida ranglar ma’nosida, o‘zbek tilida esa turli-tuman ma’nosini ifodalaydi. Kamalakning نا ول ranglari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Arab tilidan olingan so‘zlarning bunday lingvokulturologik tadqiqi O‘zbekistonda o‘zbek tilining rivojlanishiga hamda milliy o‘zlik va qadriyatlarni anglashga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Зикриллаев Ғ. Руҳ ва тил. Тошкент, 2018, 5–betlar.

(2). Юсупов У.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида. Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент, 2011, 49-бет.

(3). Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, “Сангзор”, 2006.

(4). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида, Т., 2005–2008, “Б”–Ҳ, 384-бет.

Nematova Nargiza Azimovna (NavDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti “Fakultetlararo chet tillar” kafedrasi ingliz tili o‘qituvchisi; nematovanargiza2019@gmail.com; 0000-0003-4699-3071; УДК 811.111)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI NUTQIY ALOQADA KONNOTATIV SEMANTIKANING PRAGMATIK AHAMIYATI

Annotasiya. *Maqola muayyan lingvistik shaxsning nutqi, unga xos bo‘lgan nutq har doim ham, aftidan, amal qilishi kerak bo‘lgan nutq xatti-harakatlari normalari bilan bevosita bog‘liq emas. Milliy tilning har qanday ona tilida so‘zlashuvchisi o‘zining va boshqa odamlarning nutqidagi barcha bu birliklarni osongina va aniq aniqlay oladi va ajrata oladi, shuning uchun so‘zlovchi ulardan foydalanishni nazorat qilish (bu, ayniqsa, jargon va argotizm uchun to‘g‘ri keladi) va unga begona muhitda ulardan voz kechish, aksincha, “o‘z” orasida nutqda o‘z xohishiga ko‘ra aktualizatsiya qilishi kerakligi va buni tarjimada o‘z o‘rnida ishlatilishi, foydalanilishi samarali chiqishi uchun o‘sha milliy ishlatadigan leksik birliklardan foydalanilishiga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: pragmatika, nominativ, makrokomponent, jargon, frazeologiya, konnotativ, ekstralingvistika.*

ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ КОННОТАТИВНОЙ СЕМАНТИКИ В РЕЧИ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *Статья не имеет прямого отношения к нормам речевого поведения, которым всегда должна следовать речь конкретного языкового человека, характерная для него речь. Все эти единицы в своей и чужой речи корректор любого родного языка национального языка может легко и точно идентифицировать и различать, поэтому корректировщик может контролировать их употребление (особенно это касается сленга и арготизма) и отказываться от них в речи. Чуждую ему среду или, наоборот, которую он должен актуализировать в речи по своей воле, и что он должен использовать лексические единицы, используемые этим гражданином, чтобы быть эффективным при переводе.*

Ключевые слова*: прагматика, номинатив, макрокомпонент, сленг, фразеология, коннотатив, экстралингвистика.*